XALQ DEPUTATLARI BOYSUN TUMANI KENGASHINING
Q A R O R I

2026-yil 9-yanvar VII-18-2-8-110-K/26 Boysun tumani

Boysun tumanida 2026-yil uchun yer qa’ridan foydalanganlik uchun hamda suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq stavkalarini belgilash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6-, 24-moddalari, O‘zbekiston Respublikasi soliq kodeksining 445- va 452-moddalari hamda Boysun tumani soliq inspeksiyasining 2025-yil 16-dekabrdagi 27-07243-son xati asosan xalq deputatlari tuman Kengashi

QARORQILADI:

1. Boysun tumani soliq inspeksiyasining 2025-yil 16-dekabrdagi 27-07243-son xati ma’lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Boysun tumani bo‘yicha 2026-yil uchun suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq stavkasiga 0,7 dan 1,3 gacha qo‘llaniladigan koeffitsiyentlar miqdori 1-ilovaga muvofiq;

noruda qurilish materiallari uchun (smentdan tashqari) belgilangan qat’iy stavkalariga qo‘llaniladigan 1,3 barobargacha oshiruvchi koeffitsiyentlar miqdori 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Tuman hokimligi axborot xizmati (Y.Xoliyorov), “Boysun” gazetasi tahririyati (D.Oripov) mazkur qarorning “Boysun” gazetasida rasman e’lon qilinishi hamda hokimlik veb-saytiga joylashtirilishini ta’minlasin.

4. Mazkur qaror ijrosining nazorati tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (Y.Jo‘rayev) hamda xalq deputatlari tuman Kengashining Mahalliy budjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (Q.Alimov) zimmasiga yuklansin.

5. Mazkur qaror rasmiy e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

Sessiya raisi

SHUKUROV BOXADIR SHOTURAYEVICH

Xalq deputatlari Boysun tumani
Kengashining
2026-yil 9-yanvardagi
VII-18-2-8-110-K/26 -son qaroriga
1-ilova

Boysun tumani bo‘yicha 2026-yil suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq stavkasiga qo‘llaniladigan koeffitsiyentlar

T/R	Tumanlar	2026-yil uchun taklif 0,7 gacha (1,1 gacha oshiruvchi koeffisiyent)							
		Yer usti				Yer osti			
		Iqtisodiyotning barcha tarmoqlaridagi korxonalar, shuningdek YaTTlar **(749 so‘m)**	Sanoat korxonalari **(749 so‘m)**	Avtotransport vositalarini yuvish **(80 250 so‘m)**	Alkogolsiz va alkogolli ichimliklar ishlab chiqarish, (pivo va vinodan tashqari) **(40 600 so‘m)**	Iqtisodiyotning barcha tarmoqlaridagi korxonalar, shuningdek YaTTlar **(910 so‘m)**	Sanoat korxonalari **(910 so‘m)**	Avtotransport vositalarini yuvish **(16 050 so‘m)**	Alkogolsiz va alkogolli ichimliklar ishlab chiqarish, (pivo va vinodan tashqari) **(40 600 so‘m)**
		X	X	X	X	X	X	X	X
1.	Boysun tumani	**749,0**	**749,0**	**80250,0**	**40660,0**	**910,0**	**910,0**	**16050,0**	**40660,0**

Xalq deputatlari Boysun tumani
Kengashining
2026-yil 9-yanvardagi
VII-18-2-8-110-K/26 -son qaroriga
2-ilova

Boysun tumani bo‘yicha 2026-yilda noruda qurilish materiallari uchun (smentdan tashqari) belgilangan qat’iy stavkalariga qo‘llaniladigan koeffitsiyentlar

T/r	Tuman nomi	Bazaviy soliq stavkasi						
		1. **Arralanadigan xarsangtoshlar** *(sement va ohak ishlab chiqarish uchun mo’ljallangan ohaktoshdan tashqari)*	**2. Tabiiy bezaktoshdan bloklar**	**3. Marmar**	**4. Granitlar**	**5. Gips toshi, gips va angidrid, ganch**	**6. G‘isht-cherepitsa xom ashyosi, lyosslar va lyossimon jinslar**	**7. Qurilish qumi, qumtoshlar qum-shag‘al aralashmasi**
1.	**Boysun tumani**	**6 591**	**10 700**	**21 400**	**32 100**	**17 066**	**4 943**	**5 350**